

## EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR INTERNET TARMOG'IDAGI TAHDIDLARI

**Javohir Sultonov**

O'zMU magistranti

### **ANNOTASIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kunda global axborot makonida ekstremistik va terroristic tahdid turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusiga doir ilmiy va rasmiy adabiyotlar umumlashtirilib mavjud muammo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** Axborot xavfsizligi, tahdid turlari, mafkura, fikrlar plyuralizmini.

Internet tarmog'ida yaratib berilayotgan keng imkoniyatlardan o'zlarining qabix niyatlarini amalga oshirish maqsadida foydalanayotganlarning jirkanch ishlari oson va tez amalga oshayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda qo'poruvchilik, buzg'unchilik, axloqsizlik kabi g'ayriinsoniy g'oya va mafkuralarni targ'ib etuvchi saytlar soni, ularda tarqatilayotgan rasm, audio, video materiallarining adadi ko'p ekanligi barchamizga ma'lum. Bunday saytlarning soni soat sayin ortib bormoqda. Bu haqda Tulepov A. o'zining "Internetga in qurgan o'rgimchaklar" nomli asarida quyidagicha yozadi: "So'ngi yillarda buzg'unchilikni targ'ib qiluvchi veb-saytlar soni bir necha barobarga ko'paygan. Xususan, o'n yil avval bunday saytlar 20ta bo'lsa, bugun 7000dan ortib ketishi natijasida ayrim ilmsiz yoshlarning buzuq e'tiqodga chalg'ib, botil firqalarga qo'shilayotgani achinarli hol"<sup>18</sup>.

Internetga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Natijada axborot va kommunikatsiya sohasida ulkan o'zgarishlar yuz beryapti. Oxirgi 50-yilda axborot uzatish tizimning ishi 300 ming marta tezlashdi. Narx esa ming barobar arzonlashdi.

<sup>18</sup> Tulepov Aydarbek. Internetga in kurgan "O'rgimchaklar". - T.: Mavarounnahr, 2014 - B. 5

Bunday hodisa Yer yuzida ulkan axborot makoni - xalqaro internet tarmog'i yuzaga kelishiga omil bo'ldi.

Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi. Veb-sahifaga joylashtirilgan birgina ma'lumotni yashin tezligida dunyo bo'ylab tarqatish imkonini berdi<sup>19</sup>.

Bugungi kunda internet ayrim "shaxslar" uchun g'oyaviy qurolga aylanayotgani masalaning eng muammoli jihatidir. Buzg'unchi kuchlar xalqlar o'rtasida urush-janjal, ziddiyatlar keltirib chiqarishda "o'rgimchak to'ri" dan ham keng foydalanishyapti. Bunda "WikiLeaks" kabi saytlarning "hissasi" katta bo'lmoqda. Bunday saytlarning manbalari noma'lum, ular fitnaga sabab bo'luvchi shov-shuvli yoki yolg'on-yashiq ma'lumotlarni keng ommaga e'lon qilish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, buzg'unchi kimsalar "Facebook", "Twitter", "Instagram" kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali ham minglab kishilarni ommaviy norozilik uyushtirishga chaqirishadi<sup>20</sup>.

Yolg'on ma'lumotlar tarqatuvchi kimsalar borligi va ular keltirgan ma'lumotlarga musulmonlar qanday munosabatda bo'lishlari zarurligi haqida Alloh taolo "Hujerot" surasining 6-oyatida shunday marhamat qiladi: "Ey iymon keltirganlar! Agar fosiq xabar keltirsa, aniqlab ko'ringlar bir qavmga bilmasdan musibat yetkazib qo'yib, qilganingizga nadomat chekuvchi bo'l manglar"<sup>21</sup>.

Musulmonlar Alloh taoloning yuqoridagi buyrug'iga amal qilmayotganliklari, internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlarni tekshirmsandan turib ishonib ketayotganlari sababli butun dunyodagi musulmon axolisining hayotida diniy ekstermizm va terrorizm kabi turli fitnalar chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirda internet tarmog'ida diniy-ekstremistik ruhidagi ko'plab saytlar faoliyat yuritmoqdaki, ularning homiyлари insonlarni "jihod" qilishga, sababsiz o'z yurtidan "hijrat" qilib, chiqib ketishga chaqirib, muqaddas islom dini niqobi ostida o'zlarining manfur niyatlarini amalga oshirish payida bo'lmoqdalar. "Facebook" ijtimoiy

<sup>19</sup> Muxammad Amin Yaxyo. Internetdagi taHdidlardan Himoya. -T.: Mavarounnah, 2016. - B. 4.

<sup>20</sup> Tulepov Aydarbek, Internetga in kurgan "O'rgimchaklar". - T.: Mavarounnah, 2014 - B. 17.

<sup>21</sup> Tafsiri Hilol. 5 - juz. / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. - T.: Hilol nashr, 2013. - B. 543.

tarmog‘idagi g‘arazli guruqlar yoki to‘dalar o‘zlarining qabix niyatini amalga oshirish uchun hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlarni aqidalaridan adashtirish uchun tun-u kun harakat qilmoqda. Bu kabi kimsalar din nomi bilan ish olib borayotgan bo‘lsa-da, aslida ular din dushmanlaridir<sup>22</sup>. Bu haqida “Ra’d” surasining 25-oyatida bunday deyiladi: “Allohning ahdini miysokdan keyin buzadiganlar, Allah bog‘lanishiga amr etgan narsalarni uzadiganlar va yer yuzida buzg‘unchilik qiladiganlarga, ana o‘shalarga la’nat va ularga yomon diyor bor<sup>23</sup>.

“Al-Qoida” tashkiloti o‘z targ‘ibotining 99 foizini internet orqali amalga oshiradi. 2011-yilning iyun oyida “al - Qoida” tashkiloti internet orkali terrorchilik amaliyotini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z gumashtalariga yetkazishga uringani fosh etilgan. Gap shundaki, tashkilotga taalluqli bo‘lgan veb sahifalarning birida foydalanuvchilarga yuklab olish uchun qiziqarli jurnal taklif etilgan bo‘lib, uning sahifalaridan oddiy oshxona sharoitida qo‘lbola bomba tayyorlashni o‘rgatuvchi ko‘rsatmalar joy olgan. Shu orqali tashkilot butun dunyoda o‘z a’zolariga o‘zini-o‘zi portlatish amaliyotlarining so‘ngi uslublari haqida ma’lumotlarni yetkazib borgan.

Shuningdek, bolalar uchun xudkushlik amaliyotini targ‘ib etuvchi maxsus multfilm ishlangan. Filmdan maqsad bolalarda terrorchilar talqinidagi jihod harakatlariga nisbatan moyillik uyg‘otish va keljakda buzg‘unchilar saflarini ana shu yoshlar hisobidan to‘ldirishdir.

Jahon axborot tarmog‘iga kirayotgan yoshlar soni soat sayin ortmoqda. Masalan, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2008-yilda 2 million bo‘lsa, 2015-yilda 10,2 milliondan oshgani, ularning aksariyati yoshlar ekanini alohida qayd etish lozim. Asosiy masala internetdan kim qanday foydalanishida. Hozir yosh bola ham kompyuterni bemalol ishlata oladi. Bir qarashda, buning yomon joyi yo‘qday. Ammo, haddan oshilsa, nazorat bo‘shashsa, oqibati ayanchli bo‘ladi<sup>24</sup>.

<sup>22</sup> Tulepov Aydarbek, Internetga in qurban “O‘rgimchaklar”. - T.: Mavarounnahr, 2014.-B. 20.

<sup>23</sup> Tafsiri Hilol. 3 - juz. / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr. -T.: Hilol nashr, 2013. - B. 234.

<sup>24</sup> Muammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan ximoya. -T.: Mavarounnahr, 2016. - B. 4

Cheksiz auditoriya - global tarmoqda turli fikr va qarashdagi milliardlab odamlar mavjud. Bu sarhadsiz olamda kishilar turli mavzularda fikr almashadi, o‘zaro bahs-munozaralar qiladi. Bunday odamlar gavjum go‘schan unumli foydalanish uchun terrorchilar virtual makonni o‘zlarining “ov makoni”ga aylantirib olmoqda<sup>25</sup>.

Buzg‘unchi firqalar tomonidan amalga oshirilayotgan xunrezliklar ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet orqali ko‘p namoyish etilmoqda. Jangarilar o‘zlarining qabix maqsadi yo‘lida internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. Masalan, g‘alamislarning aldamchilik, ko‘z bo‘yamachilik bilan ishlangan, soxtalashtirilgan video tasvirlari g‘o‘r yoshlarni o‘z domiga tortmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Tulepov Aydarbek. *Internetga in kurgan “O‘rgimchaklar”*. - T.: Mavarounnahr, 2014 - B. 5
2. Muxammad Amin Yaxyo. *Internetdagi taHidillardan Himoya*. -T.: Mavarounnahr, 2016. - B. 4.
3. Tulepov Aydarbek, *Internetga in kurgan “O‘rgimchaklar”*. - T.: Mavarounnahr, 2014 - B. 17.
4. Tafsiri Hilol. 5 - juz. / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr*. - T.: Hilol nashr, 2013. - B. 543.
5. Tulepov Aydarbek, *Internetga in qurgan “O‘rgimchaklar”*. - T.: Mavarounnahr, 2014,-B. 20.
6. Tafsiri Hilol. 3 - juz. / Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr*. -T.: Hilol nashr, 2013. - B. 234.
7. Muammad Amin Yahyo. *Internetdagi tahdidillardan ximoya*. -T.: Mavarounnahr, 2016. - B. 4
8. Muhammad Amin Yahyo. *Internetdagi tahdidillardan ximoya*. -T.: Mavarounnahr, 2016. - B. 4

---

<sup>25</sup> Muhammad Amin Yahyo. *Internetdagi tahdidillardan ximoya*. -T.: Mavarounnahr, 2016. - B. 4